



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 330 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
A. S. Umarov	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе	92
Эргашев Серожиддин Султонмурадович, Маматов Исломбек Ильесович	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi	102
Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	106
Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv	111
To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari	122
Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari	126
Haytbayeva S. R.	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
Kadirova Nigora Saxibjanovna	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
Samiyeva Zuleyxa Uktamovna	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari	139
Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish	145
Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
Toshpulatova Aziza Toyirovna	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari	155
Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari	159
Begmatov Raximkul Olimovich	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari	164
Narziyeva Mastura Sunnatovna	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	168
Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	173
Qo'chqorov Nodir Bozorovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar	178
A'zamqulova Zilola Sunnat qizi	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....	183
Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar	187
Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari	190
Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili..... 194 <i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i>	194
	Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati..... 198 <i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>	198
	Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili 202 <i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	202
	Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means 205 <i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>	205
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish..... 208 <i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>	208
	Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari..... 212 <i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>	212
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati 216 <i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>	216
	Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari..... 221 <i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>	221
	Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication 224 <i>Fayziyeva Parvina</i>	224
	Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi 227 <i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>	227
	Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi..... 235 <i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>	235
	Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari..... 238 <i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	238
	Spheres of Language Use..... 243 <i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>	243
	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi..... 246 <i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>	246
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari..... 251 <i>N. Jurayev</i>	251
	Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil 255 <i>Nargiza Ergasheva</i>	255
	Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli 259 <i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>	259
	Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar) 264 <i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i>	264
	O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi 269 <i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>	269
	Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi..... 273 <i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>	273
	Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori..... 278 <i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>	278
	Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati..... 282 <i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	282
	Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish 285 <i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>	285



Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...	289
<i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish	293
<i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....	296
<i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit	300
<i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari	303
<i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции	308
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты.....	312
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	317
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов	319
<i>Рахимходжаева В. С.</i>	
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета	325
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	

UMUMTA'LIM MAKTABIDA ELEKTRON AXBOROT-TA'LIM RESURSLARI

Xolmurodov Shuxrat Okboyevich
Termiz davlat pedagogika instituti

Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li
Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida elektron axborot-ta'lim resurslaridan foydalanishning pedagogik, metodik va amaliy ahamiyati yoritiladi. Bugungi raqamli ta'lim sharoitida elektron darsliklar, multimedia materiallari, interaktiv platformalar, virtual laboratoriyalar, test tizimlari va masofaviy ta'lim vositalari o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirishda muhim o'rin tutadi. Maqolada elektron axborot-ta'lim resurslari o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, axborot bilan ishlash ko'nikmasi, ijodiy yondashuvi va fanlarga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishdagi samarali vosita sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchining dars jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etishi, ta'lim sifatini oshirishi va individual yondashuvni ta'minlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: elektron ta'lim resurslari, axborot texnologiyalari, umumta'lim maktabi, raqamli ta'lim, interaktiv metodlar, multimedia, elektron darslik, masofaviy ta'lim, pedagogik texnologiyalar.

Abstract: This article highlights the pedagogical, methodological, and practical significance of using electronic educational resources in general secondary schools. In the context of modern digital education, electronic textbooks, multimedia materials, interactive platforms, virtual laboratories, testing systems, and distance learning tools play an important role in enhancing students' learning activities. The article analyzes electronic educational resources as an effective means of developing students' independent thinking, information literacy skills, creative approaches, and interest in academic subjects. It also examines the opportunities for teachers to organize lessons based on modern technologies, improve the quality of education, and ensure an individual approach to students.

Key words: electronic educational resources, information technologies, general secondary school, digital education, interactive methods, multimedia, electronic textbook, distance learning, pedagogical technologies.

Аннотация: В данной статье раскрываются педагогические, методические и практические аспекты использования электронных информационно-образовательных ресурсов в общеобразовательных школах. В условиях современной цифровой образовательной среды электронные учебники, мультимедийные материалы, интерактивные платформы, виртуальные лаборатории, тестовые системы и средства дистанционного обучения играют важную роль в активизации учебного процесса учащихся. В статье электронные информационно-образовательные ресурсы рассматриваются как эффективное средство развития самостоятельного мышления учащихся, навыков работы с информацией, творческого подхода и интереса к учебным предметам. Также анализируются возможности организации учебного процесса учителем на основе современных технологий, повышения качества образования и обеспечения индивидуального подхода.

Ключевые слова: электронные образовательные ресурсы, информационные технологии, общеобразовательная школа, цифровое образование, интерактивные методы, мультимедиа, электронный учебник, дистанционное обучение, педагогические технологии.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini raqamlashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish umumta'lim maktablari oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar ta'lim mazmunini yangilash, dars jarayonini interaktiv tashkil etish, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Shu nuqtayi nazardan, elektron axborot-ta'lim resurslaridan samarali foydalanish zamonaviy maktab ta'limining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Elektron axborot-ta'lim resurslari deganda elektron darsliklar, multimedia materiallari, videodarslar, virtual laboratoriyalar, interaktiv testlar, elektron kutubxonalar, ta'lim platformalari va masofaviy o'qitish vositalari tushuniladi. Ushbu resurslar o'quvchilarga o'quv materiallarini ko'rgazmali, qiziqarli va tushunarli shaklda



yetkazish imkonini beradi. Ayniqsa, murakkab mavzularni animatsiya, grafik tasvir, audio va video materiallar yordamida tushuntirish o'quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga xizmat qiladi.

Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslaridan foydalanish o'qituvchi faoliyatini ham metodik jihatdan boyitadi. O'qituvchi darsni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quvchilar bilimini tezkor baholash, individual topshiriqlar berish va o'quv jarayonini samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning darsdagi faolligini kuchaytirish va ularning axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, elektron ta'lim resurslari o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish jarayonini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchi darsdan tashqari vaqtda ham elektron darsliklar, onlayn platformalar va qo'shimcha ta'limiy materiallardan foydalanib, o'z bilimini mustahkamlashi mumkin. Bu jarayon o'quvchilarda izlanish, tahlil qilish, axborotni saralash va undan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, elektron axborot-ta'lim resurslaridan foydalanish masalasi ko'plab pedagog va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, J. Dyui ta'lim jarayonida amaliy faoliyat va interaktiv yondashuvning ahamiyatini asoslagan bo'lsa, L.S. Vygotskiy o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishda ta'lim muhiti va vositalarining muhim o'rin tutishini ta'kidlagan. B. Blum ta'limda mustaqil fikrlash va kognitiv faoliyatni rivojlantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Zamonaviy tadqiqotchilar elektron darsliklar, multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar va interaktiv platformalarning o'quvchilarning bilim olish jarayonidagi faolligini oshirishini qayd etadilar. Shuningdek, ilmiy manbalarda elektron ta'lim resurslari o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish, axborotni tahlil qilish va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida baholanadi.

Umumta'lim maktablarida elektron axborot-ta'lim resurslaridan foydalanish masalasi zamonaviy pedagogika, axborot texnologiyalari, didaktika va ta'lim metodikasi sohalarida keng o'rganilayotgan dolzarb yo'nalishlardan biridir. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda elektron ta'lim resurslari o'quv jarayonini raqamlashtirish, dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilish faolligini rivojlantirish hamda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida talqin qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik tadqiqotlarda elektron axborot-ta'lim resurslari tushunchasi keng mazmunda izohlanadi. Unga elektron darsliklar, multimedia vositalari, interaktiv mashqlar, videodarslar, virtual laboratoriyalar, elektron test tizimlari, raqamli kutubxonalar va onlayn ta'lim platformalari kiradi. Ushbu resurslar o'quv materiallarini faqat matn shaklida emas, balki audio, video, animatsiya, grafik tasvir va interaktiv topshiriqlar orqali yetkazish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarning mavzuni yaxshiroq tushinishi, ko'rish va eshitish orqali idrok etishi hamda bilimlarni mustahkamlashiga yordam beradi.

Didaktik adabiyotlarda elektron ta'lim resurslarining eng muhim afzalliklaridan biri sifatida ularning ko'rgazmalilik tamoyilini kuchaytirishi ta'kidlanadi. An'anaviy darslarda ayrim murakkab tushunchalarni faqat og'zaki tushuntirish orqali yetkazish qiyin bo'lishi mumkin. Elektron resurslar esa murakkab jarayonlarni animatsiya, model, sxema, tajriba va virtual laboratoriya ko'rinishida namoyish etish orqali o'quvchilarda mavzu bo'yicha aniq tasavvur hosil qiladi. Ayniqsa, tabiiy fanlar, matematika, informatika, geografiya, tarix va til fanlarini o'qitishda bunday vositalarning ahamiyati katta.

Ilmiy manbalarda elektron axborot-ta'lim resurslari o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirishda ham samarali vosita sifatida baholanadi. O'quvchi elektron darslik, videodars yoki interaktiv testlardan foydalangan holda darsdan tashqari vaqtda ham bilimini mustahkamlashi mumkin. Bu jarayon o'quvchida o'z-o'zini nazorat qilish, mustaqil izlanish, axborotni tahlil qilish, kerakli ma'lumotni tanlash va undan maqsadli foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Elektron ta'lim resurslari o'qituvchi faoliyatini metodik jihatdan boyitishi bilan ham muhimdir. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, zamonaviy o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quv jarayonini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va boshqaruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi kerak. Elektron resurslar o'qituvchiga darsni qiziqarli tashkil etish, o'quvchilar bilimini tezkor baholash, individual topshiriqlar berish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini kuzatish va ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi.

Adabiyotlarda elektron axborot-ta'lim resurslarining interaktivlik xususiyati alohida ta'kidlanadi. Interaktiv resurslar o'quvchini passiv tinglovchi emas, balki dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. O'quvchi topshiriqlarni bajaradi, savollarga javob beradi, natijani darhol ko'radi, xatolarini tuzatadi va o'z bilimini mustaqil baholaydi. Bu esa dars jarayonida o'quvchining faolligini oshiradi hamda o'rganilayotgan mavzuga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslaridan foydalanish o'quv jarayonining mazmuni, shakli va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, elektron resurslar an'anaviy dars jarayonini yanada interaktiv, ko'rgazmali va o'quvchi faolligiga asoslangan ta'lim shakliga aylantiradi. Bunda o'quvchi faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil izlanadigan, topshiriqlarni bajaradigan, natijani tahlil qiladigan faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi.

Elektron axborot-ta'lim resurslari dars jarayonida turli ko'rinishlarda qo'llaniladi. Elektron darsliklar, videodarslar, animatsion materiallar, virtual laboratoriyalar, interaktiv testlar, elektron kutubxonalar va ta'lim platformalari o'quvchilarning mavzuni chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, murakkab mavzularni grafik tasvirlar, audio va video materiallar, amaliy mashqlar hamda animatsiyalar orqali tushuntirish o'quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi, mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, elektron axborot-ta'lim resurslari o'qituvchi faoliyatini ham metodik jihatdan boyitadi. O'qituvchi darsni rejalashtirishda elektron materiallardan foydalanib, mavzuni o'quvchilar uchun yanada tushunarli, qiziqarli va samarali shaklda tashkil etishi mumkin. Elektron testlar orqali o'quvchilarning bilim darajasini qisqa vaqt ichida aniqlash, xatolarni tahlil qilish va keyingi darslar uchun zarur metodik xulosalar chiqarish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa ta'lim jarayonining tezkorligi va samaradorligini oshiradi.

Elektron resurslardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini kuchaytiradi. O'quvchi darsdan tashqari vaqtda ham elektron darsliklar, videomateriallar, onlayn mashqlar va testlardan foydalanib, o'z bilimini mustahkamlashi mumkin. Bu jarayon o'quvchida mas'uliyat, izlanish, o'z-o'zini nazorat qilish, mustaqil fikrlash va axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, elektron axborot-ta'lim resurslari o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. An'anaviy darslarda ayrim mavzular faqat og'zaki tushuntirilganda barcha o'quvchilar uchun bir xil darajada tushunarli bo'lmasligi mumkin. Elektron resurslar esa mavzuni ko'rish, eshitis, kuzatish va amaliy bajarish orqali o'zlashtirish imkonini beradi. Natijada dars jarayoni jonlanadi, o'quvchilarning e'tibori kuchayadi va bilimlarni eslab qolish darajasi ortadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, elektron axborot-ta'lim resurslaridan foydalanish ta'lim jarayonining ko'rgazmaliligini oshiradi, o'quvchilarning bilish faolligini kuchaytiradi, mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi va baholash jarayonini tezlashtiradi. Shu bilan birga, ushbu resurslar individual yondashuvni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Chunki har bir o'quvchining bilim darajasi, qiziqishi va o'zlashtirish tezligi turlicha bo'ladi. Elektron resurslar esa turli murakkablikdagi topshiriqlar va qo'shimcha materiallar orqali har bir o'quvchi bilan alohida ishlash imkonini beradi.

Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslaridan foydalanish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Chunki bugungi kunda o'quvchilarning bilim olish jarayoni faqat darslik va og'zaki tushuntirish bilan cheklanib qolmay, balki raqamli vositalar, multimedia materiallari, elektron platformalar va interaktiv topshiriqlar orqali yanada boyitilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonining mazmunan yangilanishiga, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortishiga va ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlanishiga xizmat qiladi.

Muhokama jarayonida avvalo shuni ta'kidlash lozimki, elektron axborot-ta'lim resurslari an'anaviy ta'limni inkor etmaydi, aksincha, uni zamonaviy texnologik imkoniyatlar bilan boyitadi. An'anaviy darslarda o'qituvchi asosiy bilim manbai sifatida ishtirok etsa, elektron resurslar qo'llanilgan darslarda o'qituvchi yo'naltiruvchi, tashkil etuvchi va nazorat qiluvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Bunday yondashuv o'quvchining darsdagi faolligini oshiradi, uni mustaqil izlanishga va o'z bilimni amaliy topshiriqlar orqali mustahkamlashga undaydi.

Elektron resurslarning muhim afzalliklaridan biri ularning ko'rgazmalilik imkoniyatidir. O'quvchilar murakkab mavzularni video, animatsiya, grafik tasvir, jadval, sxema va virtual tajribalar orqali osonroq tushunadilar. Ayniqsa, tabiiy fanlar, matematika, informatika, geografiya va tarix kabi fanlarda elektron resurslardan foydalanish mavzuni aniq, jonli va tushunarli tarzda yoritishga yordam beradi. Bu esa o'quvchilarning mavzuni eslab qolish darajasini oshiradi.

Shuningdek, elektron axborot-ta'lim resurslari o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchi elektron darsliklar, onlayn testlar, videodarslar va elektron kutubxonalardan foydalanib, darsdan tashqari vaqtda ham o'z bilimini mustahkamlashi mumkin. Bu jarayon o'quvchida izlanish, axborotni tanlash, tahlil qilish va undan to'g'ri foydalanish malakalarini shakllantiradi. Natijada o'quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki faol bilim oluvchi subyektga aylanadi.

Elektron ta'lim resurslari o'qituvchi faoliyati uchun ham samarali metodik vosita hisoblanadi. O'qituvchi ular yordamida darsni oldindan rejalashtirishi, mavzuga mos multimedia materiallarini tanlashi, interaktiv mashqlar tuzishi, o'quvchilarning bilimni tezkor baholashi va natijalarni tahlil qilishi mumkin. Bu esa dars jarayonining samaradorligini oshiradi hamda o'qituvchiga har bir o'quvchining bilim darajasi bilan individual ishlash imkonini beradi.



Biroq, elektron axborot-ta'lim resurslaridan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim maktablarda kompyuter, proyektor, elektron doska va internet tarmog'i yetarli darajada ta'minlanmagan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, barcha o'qituvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha malakasi bir xil emas. Elektron resurslar metodik jihatdan to'g'ri tanlanmasa, ular darsning asosiy maqsadiga xizmat qilmasligi yoki o'quvchilarning e'tiborini chalg'itishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslaridan foydalanish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, elektron darsliklar, multimedia materiallari, videodarslar, virtual laboratoriyalar, interaktiv testlar, elektron kutubxonalar va ta'lim platformalari o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi, mavzularni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi hamda dars samaradorligini oshiradi.

Elektron axborot-ta'lim resurslari o'quvchilarda mustaqil fikrlash, axborot bilan ishlash, izlanish, tahlil qilish va o'z bilimini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, raqamli ta'lim vositalari orqali o'quvchi darsdan tashqari vaqtda ham o'z ustida ishlash, mavzularni takrorlash va bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'quvchilarning o'quv faoliyatiga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi.

Shuningdek, elektron resurslar o'qituvchi faoliyatini ham metodik jihatdan boyitadi. O'qituvchi zamonaviy texnologiyalar yordamida darsni ko'rgazmali, interaktiv va qiziqarli tashkil etishi, o'quvchilar bilimini tezkor baholashi hamda individual yondashuvni amalga oshirishi mumkin. Natijada ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik kuchayadi, darsning amaliy samaradorligi ortadi.

Shu bilan birga, elektron axborot-ta'lim resurslaridan foydalanishda texnik jihozlar, internet sifati, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi va resurslarning metodik jihatdan to'g'ri tanlanishi muhim omil hisoblanadi. Elektron resurslardan maqsadsiz yoki nazoratsiz foydalanish ta'lim samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli ularni dars maqsadi, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, fan mazmuni va pedagogik vazifalarga mos holda qo'llash zarur.

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslaridan oqilona va maqsadli foydalanish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish va axborot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Elektron ta'lim resurslari o'qituvchining o'rnini bosuvchi vosita emas, balki uning pedagogik faoliyatini samarali qo'llab-quvvatlovchi zamonaviy metodik imkoniyat sifatida baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni: O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni: PF-5712-son, 2019-yil 29-aprel // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - Toshkent, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni: PF-6079-son, 2020-yil 5-oktabr // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - Toshkent, 2020.
4. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. - Paris: UNESCO, 2018. - 64 p.
5. UNESCO. Digital Learning and Transformation of Education. - Paris: UNESCO, 2025. - 98 p.
6. OECD. Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. - Paris: OECD Publishing, 2021. - 220 p.
7. OECD. Digital Education Outlook 2026: Exploring Effective Uses of Generative AI in Education. - Paris: OECD Publishing, 2026. - 245 p.
8. Mayer R.E. Multimedia Learning. 2nd ed. - New York: Cambridge University Press, 2009. - 304 p.
9. Clark R.C., Mayer R.E. E-Learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning. 4th ed. - Hoboken: Wiley, 2016. - 512 p.
10. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. 2nd ed. - Edmonton: Athabasca University Press, 2008. - 472 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.